

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 4-sentabr, № 184 (9355) Juma

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

STRATEGIK SHERIKLIKNI MUSTAHKAMLASH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Kongressi senatori, Senatdagi Markaziy Osiyo bo‘yicha kokus hamraisi Stiv Deynsni qabul qildi.



Uchrashuv avvalida AQSH senatori davlatimiz rahbari va xalqimizni mamlakat mustaqilligining 35 yilligi bilan samimiy tabriklab, tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tiladi.

O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi strategik sheriklikni yanada mustahkamlash hamda parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

So‘nggi yillarda ikki tomonlama hamkorlikni har qachongidan ham yuqori darajaga ko‘tarishga erishilgani, muloqotlar va delegatsiyalar almashinuvi jadal sur’at kasb etgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi. Energetika, muhim minerallar, transport, qishloq xo‘jaligi, raqamli texnologiyalar va sanoat yo‘nalishlarida yirik loyihalar izchil amalga oshirilmoqda.

Hududlar o‘rtasida, xususan, senator vakili bo‘lgan Montana shtati bilan aloqalarni yanada rivojlantirish istiqbollariga alohida urg‘u berildi.

“S5+1” formatidagi hamkorlik hamda xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘zA.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHGA QARATILGAN USTUVOR VAZIFALAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 3-sentyabr kuni kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda kambag‘allikni qisqartirish, aholini daromad manbalari bilan ta’minlash va mahalla darajasida iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu maqsadlar uchun hududlarga katta vakolat, moliyaviy resurs va infratuzilmaviy imkoniyatlar berildi, har bir oila bilan manzilli ishlash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Natijada yil boshida 5,8 foizni tashkil etgan kambag‘allik darajasi bugungi kunga kelib 3,9 foizga tushdi. Ehtiyojmand aholi soni 2 million 200 ming nafardan 1,5 million nafarga kamaydi. Ishlar to‘g‘ri tashkil etilgan 49 ta tuman va 3 ming 429 ta mahalla ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, hududlar kesimida natijalar bir xil emasligi ko‘rsatib o‘tildi.

So‘nggi uch yilda mahallalardagi tadbirkorlik loyihalari uchun 314 trillion so‘m resurs ajratildi. Lekin bir xil miqdorda mablag‘ olgan hududlarda kambag‘allikni qisqartirish samaradorligi keskin farq qilayotgani tahlillar orqali ko‘rsatildi.

Masalan, Sharof Rashidov va Qarshi tumanlariga 2 trillion 300 milliard so‘mdan kredit resursi berilgan. Sharof Rashidov tumanida mazkur mablag‘lar hisobiga 30 ming nafar aholi kambag‘allikdan chiqarilgan bo‘lsa, Qarshi tumanida 13 ming nafar ehtiyojmandning sharoiti yaxshilangan.

Shu bois kredit ajratishning o‘zi yakuniy natija sifatida qaralmasligi, har bir loyiha qancha doimiy ish o‘rni yaratgani va qancha oilaning barqaror daromad manbaiga ega bo‘lgani bilan baholanishi belgilandi.

Yig‘ilishda joylarda natijaga erishishga to‘sqinlik qilayotgan omillar ham tahlil qilindi. Xususan, hokim yordamchilari va mahalla bankirlarining barchasi ham biznes loyihalarini shakllantirish, moliyaviy instrumentlarni to‘g‘ri tanlash va tadbirkor bilan uning g‘oyasidan tayyor biznesgacha ishlash ko‘nikmasiga ega emasligi qayd etildi.

So‘nggi bir yilda hududlarda tashkil etilgan 86 mingta kichik korxonaning 15 mingtasi faoliyatini to‘xtatgan. Bankdan kredit olib biznesini kutilgan darajada yo‘lga qo‘ya olmagan 62 ming nafar fuqaro kreditlarni qaytarishda qiynalmoqda.

Shu munosabat bilan aholi va tadbirkorlarga faqat moliyaviy resurs taklif etish emas, balki bozor, texnologiya, kasb, biznes reja va sotuv zanjirini ham qamrab olgan kompleks yechim berish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Bu borada Xorazm viloyatida o‘tkazilgan o‘rganishlar misol qilib keltirildi. Prezident topshirig‘iga muvofiq, iqtisodiy kompleks rahbarlari ikki hafta davomida viloyatdagi 81 ming nafar kambag‘al aholi, ya’ni 19 ming oilaning sharoitini o‘rgandi. Ushbu oilalarda 12 ming nafar ishsiz va 10 ming nafar daromadi past aholi borligi aniqlandi.

Ayni paytda Xorazmdagi tadbirkorlar qurilish sohasiga 4 ming, xizmatlar sohasiga 3 ming va sanoatga 2,5 ming nafar ishchi izlamoqda. Mavjud bo‘sh ish o‘rinlari va kasbga tayyorlash imkoniyatlarini o‘zaro bog‘lash orqali kambag‘al oilalardagi 10 – 15 ming nafar aholi daromadini oshirish mumkinligi qayd etildi.

Shuningdek, o‘rganilgan ehtiyojmand oilalarda 48 ming nafar bola borligi, ularni hozirdan kasb-hunar va zamonaviy ko‘nikmalarga yo‘naltirish muhimligi ta’kidlandi. Yoshlar yetakchilari, hokim yordamchilari va xotin-qizlar faollariga maktablar, texnikumlar va o‘quv markazlarida bunday oilalar farzandlari uchun qo‘shimcha to‘garaklar tashkil etish vazifasi belgilandi.

Xorazmda kambag‘al oilalardagi 10 mingdan ziyod ayollar farzand parvarishi bilan band. Shu bois bola parvarishlayotgan ota-onalar uchun uyida yoki mahallaning o‘zida daromadli mehnat qilish imkoniyatlarini kengaytirish, farzandlarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish orqali ularning mehnat bozoriga qaytishiga sharoit yaratish zarurligi qayd etildi.

Xorazm misolidagi tahlillar barcha hududlarga taalluqli ekani ta’kidlanib, kambag‘allik bilan ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi tizim joriy etilishi belgilandi.

Endilikda har bir viloyat va tumanda hokim boshchiligida maxsus shtablar tashkil etiladi. Banklar, bandlik idoralari va iqtisodiy kompleksning boshqa tashkilotlari ushbu shtablar bilan birgalikda aholi bandligi va daromadini oshirish masalalarini joyning o‘zida hal qiladi.

Viloyat, tuman va shahar hokimlari iqtisodiy kompleks bilan birgalikda haftaning uch kunini bevosita kambag‘allik va bandlik masalalariga bag‘ishlaydi.

Yangi tizimning eng muhim jihati esa moliyaviy resurslar va qaror qabul qilish vakolatlarining katta qismi tuman darajasiga tushirilishi bo‘ladi. Oilaviy va yoshlar tadbirkorligi bo‘yicha imtiyozli kredit resurslarini boshqarish vakolati tuman shtablariga o‘tkaziladi.

Hozir oilaviy tadbirkorlik uchun 1 trillion 370 milliard so‘m, yoshlar tadbirkorligi uchun 450 milliard so‘m resurs mavjud. Tuman shtablari mahalliy sharoit va loyihaning xususiyatidan kelib chiqib, kimga qancha kredit berish, uning muddati va to‘lov grafigini biznes turiga moslashtirish masalalarini hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kredit, lizing, faktoring, kafolat, sug‘urta, aylanma mablag‘ va boshqa moliyaviy instrumentlar tadbirkorlik loyihasining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib qo‘llanadi. Dehqonchilik, savdo, xizmatlar va boshqa yo‘nalishlarda daromadning shakllanish muddati turlicha bo‘lgani uchun moliyalashtirish shartlari ham shunga mos bo‘lishi kerakligi ta’kidlandi.

(Davomi 2-betda).

DOLZARBLIGINI SAQLAB QOLAYOTGAN TAMOYILLAR

31-avgust – 1-sentyabr kunlari Belgrad shahrida Qo‘shilmaslik harakati tashkil etilganining 65 yilligiga bag‘ishlangan yuqori darajadagi Xotira tadbiri bo‘lib o‘tdi. Unda Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o‘rinbosari Sodiq Safoyev boshchiligidagi O‘zbekiston delegatsiyasi ham ishtirok etdi.

Tadbir

Tadbirda 30 dan ortiq xorijiy mamlakatlardan nufuzli mehmonlar, davlat va hukumat rahbarlari, parlamentlar raislari, bosh vazirlar o‘rinbosarlari, vazirlar boshchiligidagi delegatsiyalar qatnashdi. Uning ochilish marosimida Serbiya Prezidenti nutq so‘zlab, 1961-yilda Qo‘shilmaslik harakatining birinchi konferensiyasi o‘tkazilgan joy sifatida Belgradning tarixiy ahamiyatini alohida ta’kidladi. Shuningdek, Harakatning asosiy tamoyillari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolayotganini qayd etdi.

O‘zbekiston delegatsiyasi rahbari nutqida Qo‘shilmaslik harakatining bugungi kundagi ahamiyati va O‘zbekistonning 2027 – 2030-yillardagi raisligiga tayyorgarlik haqida so‘z yuritildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan xalqaro minbarlarda ilgari surilgan tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, iqtisodiy sheriklik, iqlim o‘zgarishi va yoshlar masalalarida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha tashabbuslar ustuvor yo‘nalishlar sifatida qayd etildi.

Tadbir doirasida Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich O‘zbekiston delegatsiyasi bilan uchrashdi. Uchrashuvda O‘zbekiston va Serbiya ko‘p qirrali munosabatlari ikki davlat Prezidentlari o‘rtasida yo‘lga qo‘yilgan faol muloqot asosida jadal sur’atlarda rivojlanib borayotgani e’tirof etildi. Parlamentlararo muloqot, iqtisodiyot, investitsiyalar, savdo va qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha hamkorlik ko‘lamini kengaytirish muhimligi ta’kidlandi.

Shuningdek, Serbiya Respublikasi Xalq yig‘ilishi spikeri o‘rinbosari Marina Ragush va boshqa xorijiy delegatsiyalar rahbarlari bilan ham uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi.

“Xalq so‘zi”.

O‘zbekiston – Fransiya:

PARLAMENTLARARO ALOQALAR YANADA KENGAYADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Fransiya Milliy assambleyasi deputati, “Fransiya – Markaziy Osiyo” do‘stlik guruhi raisi Katrin Ervye rahbarligidagi delegatsiya bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv

Tadbir avvalida tomonlar O‘zbekiston – Fransiya munosabatlari bugungi kunda strategik sheriklikning yangi bosqichiga ko‘tarilib, siyosiy muloqot bilan bir qatorda savdo-iqtisodiy, energetika, ta’lim va madaniy-gumanitar sohalarda ham jadal rivojlanayotganini mamnuniyat bilan qayd etishdi. Ta’kidlanganidek, 2025-yil 12-mart kuni Parij shahrida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron tomonidan Strategik sheriklik o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiyaning qabul qilinishi ikki davlat munosabatlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari R. Hakimov mehmonlarga Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli demokratik islohotlar, xususan, inson huquqlarini ta’minlash, gender tenglikni mustahkamlash, yoshlar siyosati va ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar haqida batafsil ma’lumot berdi. Shuningdek, 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlar natijasida parlament vakolatlari kengaygani va parlament nazorati mexanizmlari yanada kuchaytirilgani ta’kidlandi.

O‘z navbatida, K. Ervye samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzi tobora ortib borayotganini yuqori baholadi. U O‘zbekiston xalqini mamlakat mustaqilligining 35 yilligi bilan muborakbod etib, yurtimizga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va taraqqiyot tiladi. Uning aytishicha, O‘zbekiston bugungi kunda xalqaro muloqot va konstruktiv hamkorlikni rivojlantirishda muhim maydonlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

3

Munosabat

YANGI HAMKORLIK ARXITEKTURASINI SHAKLLANTIRUVCHI TASHABBUSLAR

Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlari kengashining yubiley yig‘ilishi va “SHHT plyus” formatidagi muloqot bir qarashda ikki xil maydon, ikki xil kun tartibi sifatida ko‘rinishi mumkin. Ammo Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning nutqlarida bu ikki maydondagi mazmunan bir-biriga bog‘laydigan juda muhim strategik g‘oya bor.

SHHT tashkil topganiga 25 yil to‘lgan bir pallada O‘zbekiston Prezidenti tashkilotning o‘tgan yo‘lini sarhisob qilish bilan cheklanmadi. Aksincha, uning oldiga prinsipial savol qo‘ydi: keyingi 15 yilda SHHT qanday tashkilot bo‘lishi kerak?

Shu ma’noda, “SHHT – 2040: umumiy taraqqiyot makoni” konsepsiyasini ishlab chiqish tashabbusi oddiy taklif emas. Bu tashkilotni yangi sifat bosqichiga olib chiqishga yo‘naltirilgan strategik qarashdir.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, bunday makonda investitsiyalar, texnologiyalar va bilimlar erkin almashishi, yirik infratuzilma va sanoat loyihalari amalga oshishi, mintaqalar, biznes va odamlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar kengayishi kerak.

Bu yerda eng muhim jihat SHHT kun tartibining xavfsizlikdan taraqqiyotga, muloqotdan amaliy loyihalarga qarab kengayib borayotganidir. Bugun dunyoda geosiyosiy bo‘linishlar, ishonch taqchilligi, savdo va texnologik raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda mamlakatlar uchun eng katta resurs – bu hamkorlikning o‘zi. Prezidentimiz aynan shu nuqtaga urg‘u berib, SHHT davlatlarining ulkan insoniy, tabiiy, ishlab chiqarish va intellektual salohiyati, avvalo, xalqlar farovonligiga xizmat qilishi lozimligini ta’kidladi. Bugun O‘zbekistonda SHHT davlatlari bilan 1,5 mingdan ortiq qo‘shma loyihalar amalga oshirilayotgani ham bu yondashuvning amaliy asosi borligini ko‘rsatadi.

2

SHHT – UMUMIY TARAQQIYOT MAKONI

Bugungi kunda xalqaro munosabatlar tizimi chuqur transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Geosiyosiy ziddiyatlarning kuchayishi, iqtisodiy beqarorlik, texnologik raqobat hamda global xavfsizlikka nisbatan yangi tahdidlar davlatlar oldiga o‘zaro ishonch va manfaatlarga asoslangan, amaliy samara beradigan ko‘p tomonlama hamkorlik mexanizmlarini yanada rivojlantirish vazifasini qo‘ymoqda.

Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining yubiley yig‘ilishi hamda “SHHT plyus” formatidagi majlisda ilgari surgan tashabbuslari alohida strategik ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbarining har ikki nutqini yagona konsepsiyaning o‘zaro bog‘liq ikki yo‘nalishi sifatida baholash mumkin. Bir tomondan, SHHTning ichki salohiyatini safarbar etib, uni xavfsizlik bilan bir qatorda iqtisodiy, texnologik va infratuzilmaviy taraqqiyot makoniga aylantirish nazarda tutilmoqda. Ikkinchi tomondan esa “SHHT plyus” orqali tashkilotning boshqa mintaqaviy tuzilmalar va BMT bilan amaliy hamkorligini yangi bosqichga olib chiqish taklif etilmoqda.

SHHT Davlat rahbarlari kengashining yig‘ilishida O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan muhim tashabbuslardan biri “SHHT – 2040: umumiy taraqqiyot makoni” konseptual qarashini ishlab chiqishga qaratilgan.

Ushbu yondashuv SHHTni kelgusida o‘zaro bog‘langan iqtisodiy, texnologik va gumanitar taraqqiyot hamda siyosiy muloqot va xavfsizlik sohasidagi hamkorlik maydoni sifatida rivojlantirishni nazarda tutadi. SHHT davlatlari ulkan iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lib, ular hissasiga jahon aholisining qariyb 42 foizi va global yalpi ichki mahsulotning taxminan to‘rtdan bir qismi to‘g‘ri keladi.

2

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 4-sentabr

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHGA QARATILGAN USTUVOR VAZIFALAR

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Kooperatsiyaga asoslangan loyihalarga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratiladi. Lider tadbirkor 10 ta oila bilan kooperatsiya qilsa, 500 million so‘mgacha, 100 ta oila bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ysa, 5 milliard so‘mgacha garovsiz kredit olishi mumkin bo‘ladi.

Kredit tarixida kechikish bo‘lgan ehtiyojmand aholining tashabbuslari ham individual baholanadi. Istiqbolli loyihalarni imtiyozli moliyalashtirish imkoniyati yaratiladi.

Kambag‘allik jamg‘armasidagi 240 milliard so‘m, Bandlik jamg‘armasidagi 100 milliard so‘m va uchta “daftar”dagi 760 milliard so‘m mablag‘ tuman shtablari ixtiyoriga beriladi. Tadbirkorlik kompaniyasining kompensatsiyalar uchun yil yakuniga qadar nazarda tutilgan 300 milliard so‘mlik resursi ham shtablar orqali yo‘naltiriladi.

Shu tariqa tumanlar ixtiyoriga jami 3 trillion 200 milliard so‘m resurs berilib, mablag‘larning aniq natija berishi asosiy mezon etib belgilanadi.

Moliyalashtirish mexanizmlarini iqtisodiyotdagi tez o‘zgarishlarga moslashtirish uchun ham yangi yondashuv joriy etiladi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bank hududlar salohiyati, biznes muhiti va bozor talabidan kelib chiqib, kredit, subsidiya hamda kompensatsiya mexanizmlarini har chorakda takomillashtirib boradi.

Shu bilan birga, mahalladagi hokim yordamchilari va bankirlarning salohiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratiladi. 8 ming 992 ta mahalladagi hokim yordamchilari faoliyati natijadorlik va tashabbuskorlik mezonlari asosida qayta baholanadi.

Ikki oy muddatda maxsus o‘quv markazi tashkil etilib, unga xorijdan mutaxassislar jalb qilinadi. Hokim yordamchilari va mahalla bankirlari loyiha tayyorlash, biznes modelini hisoblash, moliyalashtirish vositalarini tanlash va tadbirkor bilan ishlashga o‘qitiladi. Eng yaxshi natija ko‘rsatgan mutaxassislarni Xitoy, Yaponiya va Turkiyada malaka oshirishga yuborish, namunali xodimlarni qo‘shimcha rag‘batlantirish choralari belgilandi.

Yig‘ilishda tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish tizimi ham ko‘rib chiqildi. Endilikda tumanlar tadbirkorlik infratuzilmasi loyihalarining bevosita buyurtmachisiga aylanadi va zarur mablag‘lar to‘g‘ridan-to‘g‘ri joylarga yo‘naltiriladi. Tuman shtablariga loyihalash, qurilish va sifat nazoratini xususiy sektorga berish huquqi ham beriladi.

Kambag‘allikni qisqartirishda ijtimoiy himoya mexanizmlari ham yangicha yondashuv asosida takomillashtiriladi. Ijtimoiy himoya milliy agentligiga yil yakuniga qadar ehtiyojmand aholini Ijtimoiy reestrga kiritish mezonlarini qayta ko‘rib chiqish topshirildi.

Bunda faqat oila daromadi emas, balki surunkali kasallik, nogironlik, ko‘p bolalilik, oila a’zolarining xorijda ishlayotgani va boshqa ijtimoiy omillarni hisobga oladigan ko‘p o‘lchovli baholash tizimiga o‘tiladi.

Mamlakat bo‘yicha kambag‘allik darajasi 3,9 foizga tushgan bo‘lsa-da, uch yoshgacha farzandi bor oilalarda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 6,5 foizni tashkil etmoqda. Shu bois bola parvarishlayotgan ota-onalarni uyida yoki mahallaning o‘zida ishli va daromadli qiladigan tizim yo‘lga qo‘yiladi.

Ijtimoiy reestrdagi ishlaydigan onalarga farzandi bir yoshga to‘lguniga qadar Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasidan nafaqa to‘lanadi. Mehnatga layoqatsiz ehtiyojmand oilalar uchun esa barqaror daromad manbai yaratadigan ijtimoiy paketlar amaliyoti davom ettiriladi. Joriy yil ushbu maqsadlarga 300 milliard so‘m ajratilgan bo‘lib, bunday ko‘mak olgan 11 ming oilaning qariyb yarmida daromad sezilarli oshgani qayd etildi.

Kelgusi yildan Ijtimoiy reestrga kiritilgan oilalar farzandlarining davlat va xususiy bog‘cha to‘lovlari, o‘quv markazlarida ta’lim olish xarajatlari, yo‘lkirasi hamda oliy ta’lim muassasasi yotoqxonasi uchun to‘lovlar vaucher asosida qoplab beriladi. Vaucher 12 oy muddatga berilib, oila Ijtimoiy reestrdan chiqarilganidan keyin ham belgilangan muddat oxirigacha amal qiladi.

Yig‘ilishda hudud rahbarlari oldiga yil yakuniga qadar 350 ming nafar aholini doimiy ishga joylashtirish, yana 1 million nafar aholining daromadini oshirish va 230 mingta oilani kambag‘allikdan chiqarish vazifalari qo‘yildi.

Har bir yo‘nalish bo‘yicha aniq mexanizm va harakatlar algoritmini ishlab chiqish, mahalla darajasigacha mas’ullarni belgilash vazifasi qo‘yildi. Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha katta amaliy tajriba to‘plagan mamlakatlar, jumladan, Xitoy yondashuvi asosida aholi bilan bevosita ishlaydigan xodimlar uchun aniq ko‘rsatmalar tayyorlanadi.

Yangi tizimda asosiy mas’uliyat va resurslar joylarga tushirilib, mahalladagi har bir imkoniyatni ish o‘rni hamda daromad manbaiga aylantirish, har bir ehtiyojmand oila bilan uning sharoiti va salohiyatidan kelib chiqib ishlash ustuvor vazifa bo‘ladi.

Yig‘ilish yakunida mutasaddilar va hududlar rahbarlarining axboroti tinglanib, belgilangan vazifalarni tizimli va natijador qilib tashkil etish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berildi.

O‘zA.

YANGI HAMKORLIK ARXITEKTURASINI SHAKLLANTIRUVCHI TASHABBUSLAR

1

Prezidentimizning “SHHT plyus” formatidagi nutqida esa ushbu qarash yanada yuqori – global darajaga ko‘tarildi. Unda BMTning markaziy va muvofiqlashtiruvchi rolini saqlab qolish zarurligi ta’kidlangani juda muhim siyosiy pozitsiyadir. Chunki O‘zbekistonning yondashuvi bir tashkilotni boshqasiga qarshi qo‘yish emas, balki ularning imkoniyatlari bir-birini to‘ldirishiga erishishdan iborat. Ya’ni SHHT – BMTga muqobil emas; mintaqaviy tuzilmalar esa global institutlarning sa’y-harakatlarini kuchaytiruvchi sherik bo‘lishi kerak. Bu – yangi ko‘p qutbli dunyoga nisbatan O‘zbekistonning pragmatik va muvozanatli qarashi.

Prezidentimiz juda aniq bir mezonni belgilab berdi: biz tarafdor bo‘lgan ko‘p qutblilik yangi ajratuvchi chiziqlarni yaratmasligi, aksincha, imkoniyatlar makonini kengaytirishi kerak. Mintaqaviy loyihalar bir-biri bilan raqobatlashmasdan, bir-birini to‘ldirishi lozim.

Menimcha, ikki nutqning eng katta siyosiy ahamiyati ham shunda. Birinchi nutq “SHHT ichida qanday hamkorlik qilamiz?” degan savolga javob bo‘lsa, ikkinchi nutq – “SHHT dunyoda qanday o‘rin egallaydi?” degan savolga javob.



Yana bir muhim jihat shundaki, Prezidentimiz SHHTning geografik va strategik o‘zagi Markaziy Osiyo ekanini alohida qayd etdi. Bu mintaqamiz uchun katta imkoniyat bilan birga, katta mas’uliyat hamdir. Chunki transport yo‘laklari, energetika, suv, oziq-ovqat xavfsizligi, raqamli infratuzilma, sanoat kooperatsiyasi va Afg‘oniston masalasi – bularning barchasi Markaziy Osiyoning umumiy taraqqiyot manfaatlari bilan bevosita bog‘liq.

Shu ma’noda, SHHT doirasida ilgari surilayotgan tashabbuslar O‘zbekiston uchun faqat tashqi siyosat masalasi emas. Ular milliy iqtisodiyot, yangi bozorlar, investitsiyalar, texnologiyalar, transport imkoniyatlari va inson kapitali uchun ham yangi eshiklar demakdir.

Davlatimiz rahbarining nutqlaridan kelib chiqadigan xulosalarni shunday ifodalash mumkin:

O‘zbekiston SHHTning bugungi natijalarini baholash bilan cheklanib qolmay, uning ertangi qiyofasini shakllantirishda ham faol ishtirok etmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati qarama-qarshiliklardan emas, bog‘liqlikdan; yopiq bloklardan emas, ochiq hamkorlikdan; deklaratsiyalardan emas, amaliy natijalardan manfaatdor bo‘lgan tashqi siyosat ekanligini yana bir bor namoyon qildi.

Ushbu tashabbuslarning eng muhim jihati shuki, O‘zbekiston o‘z milliy manfaatlarini mintaqaviy va global manfaatlar bilan uyg‘unlashtirgan holda yangi dunyo tartibotida o‘zining faol va konstruktiv o‘rnini belgilab bormoqda.

Bishkekda yangragan tashabbuslar – bu shunchaki navbatdagi diplomatik takliflar emas. Bu Markaziy Osiyodan boshlanib, keng Yevroosiyo makoniga tutashadigan yangi hamkorlik arxitekturasiga qo‘shilayotgan O‘zbekiston hissasidir.

Zumrad BEKATOVA,
Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi a’zosi.

SHHT – UMUMIY TARAQQIYOT MAKONI

1

Ilgari surilgan taklif ushbu katta salohiyatni, shuningdek, tashkilotga a’zo mamlakatlarning tabiiy resurslari, sanoati, katta iste’mol bozorlari, inson kapitali va ilmiy-intellektual imkoniyatlarini birlashtirib, ularni SHHT davlatlarining raqobatbardoshligini oshirish, yangi imkoniyatlarni yaratishga xizmat qiladi.

Bunda “umumiy taraqqiyot makoni” tushunchasi, avvalo, iqtisodiy to‘siqlar kamayib, kapital, texnologiya va bilimlar mamlakatlar o‘rtasida erkinroq harakatlanadigan muhitni anglatadi. Bu yondashuv SHHT hududida investitsiyalarni jalb qilish, innovatsion ishlanmalarni joriy etish, qo‘shma ilmiy tadqiqot va texnologik loyihalarni amalga oshirish hamda ilg‘or tajribalarni tezroq ommalashtirish imkonini kengaytiradi.

Uning yana bir ahamiyati shundaki, hozirgi global iqtisodiyot sharoitida mamlakatlarning raqobatbardoshligi faqat milliy resurslarga emas, balki mintaqaviy ishlab chiqarish zanjirlariga qanchalik samarali integratsiyalasha olishiga ham bog‘liq. Shu sababli Prezidentimiz tomonidan SHHT Sanoat kooperatsiyasi xaritasini yaratish taklifining ilgari surilishi muhim ahamiyatga ega.

Mazkur mexanizm maxsus iqtisodiy zonalar, ishlab chiqarish quvvatlari, sotuv bozorlari va logistika imkoniyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni birlashtirib, yangi qo‘shma loyihalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, bu SHHT doirasidagi iqtisodiy hamkorlikni savdo munosabatlaridan chuqur sanoat kooperatsiyasi bosqichiga olib chiqish imkonini beradi.

Tashkilot doirasida iqtisodiy hamkorlikni sifat jihatdan yangi darajaga olib chiqish uchun moliyaviy mexanizmlar ham zarur. Shu nuqtayi nazardan, SHHT Taraqqiyot bankini amalda ishga tushirish transport, energetika, sanoat va raqamli infratuzilma sohalarida mintaqaviy ahamiyatga ega loyihalar portfelini shakllantirish taklifi integratsiya jarayonini moliyalashtirish institutlariga ega bo‘lishi bilan ahamiyatlidir.



Transport bog‘liqlikni kuchaytirish ham hal qiluvchi masala hisoblanadi. Prezidentimizning SHHTga a’zo davlatlarning temir yo‘l makonlari integratsiyasi bo‘yicha kengash tashkil etish, milliy transport tizimlarining “choksiz” bog‘liqligini ta’minlash taklifi aynan ushbu maqsadga qaratilgan. Transport yo‘laklarini diversifikatsiya qilish, qo‘shni va hamkor davlatlar infratuzilmasi bilan o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish tashqi savdo xarajatlarini kamaytirish, eksport geografiyasini kengaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishning muhim omilidir.

Ayniqsa, iqtisodiy hamkorlik texnologik taraqqiyotdan ajralmas holda ko‘rib chiqilgani diqqatga sazovor. Shu jihatdan, sun’iy intellekt sohasida SHHT davlatlari sa’y-harakatlarini muvofiqlashtirish, ochiq ko‘p tilli ma’lumotlar korpusini shakllantirish tashabbuslari tashkilot kun tartibiga yangi strategik yo‘nalishni olib kirmoqda.

Davlatimiz rahbari nutqlarida xavfsizlik va taraqqiyotning bir-biri bilan uzviyligi qayd etilgani e’tiborga molik, albatta. Mamlakatimiz rahbari doimo xalqaro minbarlarda Afg‘oniston masalasini ko‘tarib kelgan va ushbu nutqda ham Afg‘onistonda tinchlikni ta’minlash SHHT makonining umumiy xavfsizligi va taraqqiyoti uchun muhimligini ta’kidladi.

Prezidentimizning “SHHT plyus” majlisidagi nutqi mazkur g‘oyalarni yanada keng xalqaro kontekstga olib chiqdi. Unda “SHHT plyus”ni mintaqalararo muloqot maydoni sifatida rivojlantirish, uni mintaqaviy tashkilotlarning Hamkorlik tarmog‘ini yaratish uchun platforma sifatida xizmat qilishi kabi tashabbuslar ilgari surildi.

Tabiatdan foydalanish, “yashil” energetika, raqamli xizmatlar va sog‘liqni saqlash sohalari bo‘yicha mintaqalararo loyihalar va texnologiyalarning Ochiq bankini yaratish taklifi alohida ahamiyatga ega. Uning mohiyati oddiy: bir mamlakat yoki mintaqada samara bergan texnologiya va yechimlarni boshqa davlatlar ham tez va kamxarajat bilan o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa xalqaro tajriba almashinuvini nazariy muloqotdan amaliy hamkorlik darajasiga ko‘taradi.

“SHHT plyus” doirasida ilgari surilgan yana bir muhim tashabbus – “SHHT Invest” forumiga doimiy faoliyat yurituvchi platforma maqomini berish taklifi. Uning samaradorligi biznesning bozorlarga kirishini soddalashtirish, transchegaraviy iqtisodiy yo‘laklarni kengaytirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimini ko‘paytirishga xizmat qiladi.

Shu ma’noda, “SHHT Invest” oddiy forum emas, balki davlat, bank, investitsiya fondi va xususiy biznes o‘rtasidagi hamkorlikni doimiy asosda yo‘lga qo‘yuvchi mexanizmga aylanishi mumkin. Bu O‘zbekiston uchun yangi sarmoyalar, zamonaviy texnologiyalar va yuqori qo‘shilgan qiymatli ishlab chiqarish zanjirlariga kirish imkoniyatini kengaytiradi.

Prezidentimizning har ikki nutqida ilgari surilgan tashabbuslar O‘zbekiston tashqi siyosatining strategiyasiga ham to‘liq mos keladi: xalqaro hamkorlikning natijasi, eng avvalo, iqtisodiy o‘sishda, yangi investitsiyalarda, transport imkoniyatlarining kengayishida va xalqlar farovonligida namoyon bo‘lishi lozim.

Bishkekda ilgari surilgan tashabbuslar SHHTning kelgusi taraqqiyoti uchun yangi konseptual yo‘nalishni belgilab bermoqda. Uning mohiyati – tashkilot doirasida shakllangan o‘zaro ishonchni umumiy iqtisodiy va texnologik taraqqiyotga aylantirish, SHHTning ulkan salohiyatini esa xalqlar tinchligi va farovonligiga xizmat qildirishdan iborat.

Ulug‘bek ShERMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi.

Deputatlar – hududlarda

XALQ MANFAATLARINI TA’MINLASHDA MAS’ULLIK VA DAXLDORLIK

Avval xabar qilinganidek, shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari o‘z saylov okruglaridagi mahallalar, xonadonlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy obyektlarda bo‘lib, aholi bilan ochiq va samarali muloqotlar o‘tkazmoqda. Uchrashuvlar davomida davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar ijrosini samarali ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Qulay va xavfsiz yo‘l infratuzilmasi – e’tiborda

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Oybek Otamuratov navbatdagi o‘rganishlarini Shovot tumanidagi Mevazor mahallasida amalga oshirdi.

Bog‘dorchilik va dehqonchilikka ixtisoslashtirilgan mahallada 4 517 nafar fuqaro istiqomat qiladi. Uchrashuvlar davomida mahalla faollari hudud infratuzilmasini yaxshilash, xususan, Anor ko‘chasining 2 kilometrlik qismini asfaltlashtirish masalasini ko‘tardi.

Shuningdek, ichki yo‘llarning holatini yaxshilash, piyodalar yo‘laklarini ta’mirlash hamda yo‘lo‘tkazgichlarda zarur ta’mirlash ishlarini amalga oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar bildirildi.

Oybek OTAMURATOV,
deputat:



– Prezidentimizning mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan yo‘llagan bayram tabrigida kelgusi o‘n yillik O‘zbekiston uchun milliy yuksalish davri bo‘lishi, inson qadrini yanada yuksaltirishga qaratilgan 7 ta milliy dastur amalga oshirilishi belgilandi. Ularning biri mahallani jamiyat taraqqiyotining asosiy buyurtmachisiga aylantirish bilan bog‘liq ekani, ayniqsa, ahamiyatli. Bu tashabbusning amaliy ahamiyatini yo‘llarni yaxshilash masalasida ham ko‘rish mumkin. Chunki mahalla aholiga eng yaqin bo‘g‘in sifatida yo‘llarning holati, kundalik harakatlanishdagi muammolarni bevosita biladi. Mahallaning roli yanada kuchaysa, aholi hayotiga bevosita ta’sir qiladigan muammolar manzilli hal etiladi. Biz, deputatlar bu borada ularga yaqin ko‘makchi bo‘lmog‘imiz lozim.

Deputatning ta’kidlashicha, aholi murojaatlarini o‘rganish, ularni tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda hal etish va natijadorlikni ta’minlash – davlat siyosatida belgilangan ustuvor vazifalarni joylarda amalga oshirishning muhim sharti.

O‘rganishlar yakunida bildirilgan masalalarni tizimli ravishda hal etish, aholi uchun qulay va xavfsiz yo‘l infratuzilmasini yaratish bo‘yicha tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliy choralar ko‘rish muhimligi aytildi.

Loyihalar ijrosi o‘rganildi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Oydin Abdullayeva Toshkent shahrining Yangihayot tumanidagi mahallalarda bo‘lib, fuqarolar tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar hamda hududda amalga oshirilayotgan loyihalar holatini o‘rgandi.

Dastlab “Mening bog‘im” loyihasi doirasida aholi tomonidan taklif qilingan manzillar ko‘zdan kechirildi. Manzarali daraxtlar ekish rejalashtirilgan hududlardagi yer maydonlarining holati va ko‘lami, shuningdek, aholining mazkur tashabbusga qiziqishi yuqoriligi qayd etildi. Jarayonda fuqarolarning taklif va mulohazalari tinglandi.

O‘z navbatida, “Tashabbusli byudjet”ning bahorgi mavsumida g‘olib deb topilgan mahallada sport va bolalar maydonchasini barpo etish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar holati o‘rganildi. Loyihani amalga oshirish jarayonida aholi tomonidan bildirilgan takliflar inobatga olinayotganiga alohida e’tibor qaratildi.

Oydin ABDULLAYEVA,
deputat:



– “Tashabbusli byudjet” doirasida aholi taklif etgan loyihalarning amalga oshirilayotgani xalqimizni behad quvontirayotganiga guvoh bo‘lyapmiz. Odamlar o‘z mahallasida qanday sharoit kerakligini biladi, taklif beradi va uning ro‘yobga chiqishini kuzatadi. Mamlakatimizda mahallalarni obodonlashtirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirishga qaratilgan bunday loyihalar ro‘yobga chiqarilayotgani bugun xalqaro hamjamiyat tomonidan ham katta qiziqish bilan o‘rganilyapti. E’tiborlisi, bu xalqchil loyiha davlat mablag‘laridan samarali foydalanish, aholi ehtiyojlarini inobatga olish va mahallalarda munosib sharoitlar yaratishga xizmat qilmoqda. Albatta, aholi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bilan birga ularning sifatli bajarilishi va natijadorligi ham e’tibor markazimizda bo‘ladi.

O‘rganishlar davomida deputat Yangihayot tumani mas’ullari bilan uchrashib, aniqlangan masalalar hamda aholi takliflarini muhokama qildi. Vazifalarni amalga oshirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilab olindi.

Tomorqa – farovonlikni ta’minlovchi muhim omil

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Botirali Shodiyev Samarqand tumanidagi “Badal” mahalla fuqarolar yig‘inida bo‘lib, Isrofil Azimov xonadonidagi 3 sotix tomorqa yer maydonidan unumli foydalanish ishlari bilan tanishdi.

– Tomorqada ishlab, oilaga daromad keltirish barobarida xonadonimizda ikki bosh qoramol, to‘rt bosh qo‘y parvarishlab sut, qatiq mahsulotlarini ham yetishtiramiz, – deydi I. Azimov. – Bu ro‘zg‘or xarajatlarini kamaytirish bilan birga, oilamizga qo‘shimcha daromad ham keltirmoqda. “Mehnat qilsang rohat topasan” deyishganidek, o‘zimizda yetishtirish imkoni bo‘lgan narsani sotib olmaymiz. Bu ham oilamiz farovonligida muhim o‘rin tutadi.

Botirali SHODIYEV,
deputat:



– O‘rganishlar davomida tomorqadan unumli foydalanish oilaviy daromadni oshirishning samarali yo‘li ekaniga yana bir bor guvoh bo‘lyapmiz. Mamlakatimizda aholi uchun yaratilayotgan imkoniyatlarning ahamiyati ham shunda – har bir xonadon mavjud salohiyatdan foydalansin, mehnati orqali daromadini ko‘paytirsin deyilyapti. Biz, deputatlar, xalqimizga bu imkoniyatlardan samarali foydalanishlarini tushuntirib, ilg‘or tajribalarni ommalashtirishga hissa qo‘shishimiz kerak.

Xalq vakili muloqotlarda davlatimiz rahbarining mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazgan uchrashuvdagi nutqida ilgari surilgan tashabbuslar va takliflar mohiyatini aholiga yetkazdi.

Oilaviy poliklinikalar faoliyati bilan tanishildi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Muhammadjon Valiyev Farg‘ona viloyatining Dang‘ara tumanida bo‘lib, tuman tibbiyot birlashmasi hamda 29 va 30-sonli oilaviy poliklinikalar faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

O‘rganishlar davomida shifokor va tibbiyot xodimlari bilan aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati, mavjud muammolar va ularni hal etish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan fikr almashildi.

“Bog‘ish” MFYdagi 29-sonli oilaviy poliklinikada olib borilayotgan qurilish-ta’mirlash ishlarining holati bilan tanishilib, ularni sifatli va belgilangan muddatlarda yakunlash, yaratilayotgan sharoitlar aholiga munosib tibbiy xizmat ko‘rsatishga xizmat qilishi zarurligi ta’kidlandi.

Shuningdek, xalq vakili “Oqjar” MFYning Yaltir qishlog‘ida joylashgan 30-sonli oilaviy poliklinikada ham bo‘ldi. Mazkur muassasa tuman markazidan qariyb 25 kilometr uzoqlikda joylashgan bo‘lib, 11 500 nafardan ziyod aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatmoqda.

O‘rganishlar davomida poliklinikaning moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, laboratoriya imkoniyatlarini kengaytirish hamda “DMED” yagona elektron axborot tizimida to‘laqonli ishlash uchun zarur zamonaviy texnika vositalari bilan ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi, ayrim vositalarga ehtiyoj mavjudligi qayd etildi.

Muhammadjon VALIYEV,
deputat:



– Prezidentimizning bayram tabrigida xalqimizning sog‘lom bo‘lishi va uzoq umr ko‘rishini ta’minlash ikkinchi milliy dastur sifatida belgilandi. Bu maqsadga erishishda aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish, kasalliklarni erta aniqlash va zarur yordamni o‘z vaqtida ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega. O‘rganishlar davomida poliklinikalarda laboratoriya imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy uskunalar bilan ta’minlash va elektron axborot tizimidan to‘laqonli foydalanish masalalari ham shu vazifalarning amaliy ijrosi bilan bog‘liq. Biz, deputatlar joylarda aniqlangan muammolarning hal etilishini nazorat qilishimiz va aholi salomatligiga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirishga ko‘maklashishimiz zarur.

O‘rganishlar yakunida aniqlangan masalalarni tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda hal etish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Uch kilometrlik ichki yo‘l asfaltlanadi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Nargiza Salomova Qashqadaryo viloyatining Yakkabog‘ tumanida bo‘lib, aholi vakillari bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.

Muloqotlar chog‘ida Bolg‘ali qishlog‘i aholisining ichki yo‘llarni ta’mirlash bilan bog‘liq murojaati atroflicha o‘rganildi. Ma’lum bo‘lishicha, qishloq ichki ko‘chalarini obodonlashtirish maqsadida “Tashabbusli byudjet” doirasida tegishli loyiha shakllantirilgan. Biroq uni to‘liq amalga oshirish uchun qo‘shimcha mablag‘ talab etilgan.

Deputat tashabbusi bilan mutasaddi tashkilotlar ishtirokida masalaning yechimi yuzasidan amaliy choralar belgilab olindi. Natijada mahalliy byudjetdan yetishmayotgan mablag‘ ajratiladigan bo‘ldi. Shu tariqa aholining ko‘p yillik murojaatlaridan biri ijobiy yechim topib, Bolg‘ali qishlog‘ida 3 kilometrlik ichki yo‘lni asfaltlash uchun zarur mablag‘ yo‘naltiriladi.

Xalq vakilining qayd etishicha, ushbu loyiha amalga oshirilishi natijasida qishloq yo‘llari yaxshilanib, aholi uchun yanada qulay va xavfsiz harakatlanish imkoniyati yaratiladi.

Nargiza SALOMOVA,
deputat:



– Saylovchilar bilan uchrashuvlar doirasida Nurli yo‘l mahallasida istiqomat qiluvchi tadbirkor Zulfizar O‘rinova faoliyati bilan ham tanishdik. Tadbirkor 2,5 gektar maydonda uzumchilik bilan shug‘ullanib, bugungi kunda uzumning sakkiz xil navini parvarishlamoqda. Samarali mehnat va agrotexnik tadbirlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishi natijasida har yili mo‘l hosil olinib, mahsulot ichki bozorga yetkazib berilmoqda. Albatta, bu mavjud shart-sharoitlardan samarali foydalanib, o‘z mehnati va tashabbusi bilan nafaqat oila farovonligini ta’minlayotgan, balki hudud iqtisodiy rivojiga ham munosib hissa qo‘shayotgan tadbirkorlarimiz safi tobora kengayib borayotganining yorqin namunasidir.

Uchrashuv davomida uzumchilikni yanada rivojlantirish, hosildorlikni oshirish borasidagi istiqbolli rejalar xususida fikr almashildi.

“Xalq so‘zi”.

Mamlakatimizda shu yilning 15-oktyabridan 30-noyabriga qadar biznesni ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish ko‘zda tutilmoqda.

O‘zbekiston – Fransiya:

PARLAMENTLARARO ALOQALAR YANADA KENGAYADI

1

Muzokaralar chog‘ida ikki davlat o‘rtasidagi strategik sheriklikning amaliy natijalari iqtisodiy sohada ham yaqqol namoyon bo‘layotgani qayd etildi. Jumladan, 2025-yil yakunlariga ko‘ra, ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi ilk bor 1,4 mlrd. AQSH dollariga yetdi. Fransiya kompaniyalari ishtirokidagi qo‘shma investitsiya loyihalari portfeli esa 12 mlrd. yevrodan oshgan. Shuningdek, O‘zbekiston – Fransiya universitetining tashkil qilinishi, madaniy merosni o‘rganish va asrab-avaylash sohasidagi hamkorlik, jumladan, Luvr muzeyida O‘zbekiston madaniy merosiga bag‘ishlangan ko‘rgazmaning o‘tkazilishi gumanitar aloqalarning ham izchil kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Bunday keng qamrovli munosabatlar sharoitida parlamentlararo muloqot strategik sheriklikni qonunchilik va institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlashning muhim mexanizmi hisoblanishi aytildi. Davlat rahbarlari tomonidan erishilgan kelishuvlarning amaliy ijrosini ta’minlashda parlamentlarning qonun ijodkorligi, parlament nazorati va diplomatiyasi sohalaridagi hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston va Fransiya parlamentlari o‘rtasidagi sheriklikni yangi bosqichga olib chiqish, uni muntazam va amaliy mazmun bilan boyitish muhim vazifa sifatida belgilandi. Xususan, parlament qo‘mitalari va fraksiyalari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotlarni kengaytirish, do‘stlik guruhlari ishini faollashtirish, o‘zaro tashriflarni ko‘paytirish, ekspertlar ishtirokida qo‘shma muhokamalar va davra suhbatlarini tashkil etish masalalariga urg‘u qaratildi.

Ayniqsa, investitsiya va tadbirkorlikni huquqiy himoya qilish, energetika va “yashil” iqtisodiyot, raqamlashtirish, ta’lim va innovatsiyalar, madaniy merosni asrash, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash kabi ustuvor yo‘nalishlarda qonunchilik tajribasini o‘rganish va almashish parlamentlararo hamkorlikning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Shuningdek, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar bo‘yicha parlamentlararo muloqotni kuchaytirish, xalqaro parlament tashkilotlari doirasida o‘zaro tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash muhimligi qayd etildi.

Uchrashuv yakunida parlamentlararo hamkorlikni yanada kengaytirish, do‘stlik guruhlari ishini jonlantirish va o‘zaro tajriba almashinuvini izchil davom ettirishga kelishib olindi.

“Xalq so‘zi”.

TURKIY DUNYONING MA’NAVIY MEROSI:

ADABIYOT – DAVRLAR VA AVLODLAR MULOQOTI

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida O‘zbekiston va Qozog‘iston yozuvchilarining “Turkiy dunyoning ma’naviy merosi: adabiyot – davrlar va avlodlar muloqoti” forumi bo‘lib o‘tdi.

Forum

Forum tadbirlarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonov, Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Malik Otarbayev, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri E’zozxon Karimova, O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, Qozog‘iston Respublikasining O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Yerali Tugjanov, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid, Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasi raisi Mereke Qulkenov, Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi prezidenti Akto‘ti Rayimqulova, shuningdek, ikki mamlakatning taniqli yozuvchi va shoirlari, olimlari hamda ijodkorlari ishtirok etdi.

Mazkur anjuman yurtimiz mustaqilligining 35 yilligi, Birinchi turkologiya kongressining 100-yilligi (Boku, 1926), qolaversa, buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy tavalludining 585-yilligi munosabati bilan o‘tkazilgani alohida diqqatga sazovor.

Dastlabki tadbirlar Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida joylashgan Qoramanas qishlog‘idagi Rahmatulla Rayimqulov nomidagi 34-umumta’lim maktabida boshlandi. Bu yerda yangi o‘quv yilining tantanali ochilishi va “Birinchi qo‘ng‘iroq” tadbirlari, yangilangan maktab kutubxonasi hamda kovorking majmuasining ochilishi bo‘lib o‘tdi.

Ushbu tadbir doirasida maktab kutubxonasiga O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mita hamda Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi tomonidan kitoblar tuhfa etildi. Shuningdek, “Rahmatulla Rayimqulov: avlodlarni birlashtiruvchi meros” mavzuida ijodiy uchrashuv hamda ochiq dars o‘tkazildi.

Forum 3-sentyabr kuni Toshkent shahrida davom etdi. U Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo‘yish marosimi bilan boshlandi. Shundan so‘ng O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida o‘tkazilgan forum dasturidan “Adabiy do‘stlik – abadiy do‘stlik” deb nomlangan kitoblar ko‘rgazmasi, Birinchi Boku turkologiya kongressining 100-yilligiga bag‘ishlangan arxiv materiallari ko‘rgazmasi hamda “Turkiy dunyo adabiy hamkorligining yangi ufqlari” mavzuidagi davra suhbati o‘rin oldi.

Forumning muhim voqealaridan biri – Toshkent deklaratsiyasining qabul qilinishi bo‘ldi. Ushbu hujjat O‘zbekiston va Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmalari rahbarlari hamda Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi prezidenti tomonidan imzolandi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston va Qozog‘iston yozuvchilari, olimlari, tarjimonlari va madaniyat muassasalari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, qo‘shma nashriyot loyihalarini amalga oshirish, yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash, adabiy merosni raqamlashtirish, shuningdek, ijodiy hamkorlikni yanada kengaytirish kabi muhim masalalar muhokama etildi.

Forum sessiyasi “O‘zbekiston va Qozog‘iston adabiy muloqoti: umumiy meros, zamonaviylik va hamkorlikning yangi ufqlari” mavzuiga bag‘ishlandi. Sessiyada ikki mamlakat adabiyoti o‘rtasidagi tarixiy va bugungi aloqalar, mushtarak adabiy meros, ijodiy sheriklik va o‘zaro tarjimalar masalalari muhokama qilindi. Sessiya doirasida O‘zbekiston va Qozog‘istonda nashr etilgan kitoblar taqdimoti ham o‘tkazildi.

Tadbir doirasida ishtirokchilar O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurdi. Yangilanish yo‘lidan borayotgan jonajon Vatanimizning ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi yuksalishi, boy o‘tmishi, kelajak sari dadil qadamlar sari odimlashi ushbu markazning betakror ekspozitsiyasida yaqqol namoyon bo‘ldi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston yozuvchilarining “Turkiy dunyoning ma’naviy merosi: adabiyot – davrlar va avlodlar muloqoti” forumi ikki qardosh xalq o‘rtasidagi adabiy-madaniy hamkorlikni yanada mustahkamlash, mushtarak ma’naviy merosni keng o‘rganish va targ‘ib etish, o‘zaro tarjimalarni rivojlantirish hamda yangi qo‘shma ijodiy loyihalarga yo‘l ochishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Rahmatjon BOBOJONOV (“Xalq so‘zi”).

Surur

BAG‘ISHLOV

Yaratgan tanlab-tanlab,
Ikki tozabuloqni;
Bir adirgajoyladi
O‘zbek bilan qozoqni.

Gir-gir aylandi dunyo,
Changitib qir, yaydoqni.
Chang-to‘zonlar tobladi
O‘zbek bilan qozoqni.

O‘chiray, deb g‘animlar,
Do‘stlik degan chiroqni;
Rosagijgijladilar
O‘zbek bilan qozoqni.

Ammo jasur bobolar,
Yanchib turfatuzoqni,
Omon olib o‘tdilar
O‘zbek bilan qozoqni.

Bo‘lmagandek ajratib
Do‘stlar, etdan tirnoqni;
Ayro qilolmas hech kim
O‘zbek bilan qozoqni.

Ketayotir karvonlar,
Baland tutib mayoqni.
Ertasi xush, yoronlar
O‘zbek bilan qozoqni.

Ikki botir Elboshi
Ko‘zlab uzoq-uzoqni,
Chorlayotir falakka
O‘zbek bilan qozoqni.

Tikkaymiz ko‘k toqiga
Ikki ulug‘ bayroqni,
Yeru osmon olgay tan
O‘zbek bilan qozoqni.

Qozoq bilan o‘zbekni
O‘zbek bilan qozoqni.

Abdusaid KO‘CHIMOV.
Oliy Majlis Senati a’zosi,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi.

VATANGA MUHABBATNING MILLATI YO‘Q

Inson uchun tug‘ilib o‘sgan, qalbida mehr qo‘ygan, orzu-maqsadlari ro‘yobga chiqqan, qadr va e’tibor topgan joy – ona Vatandir. Men uchun O‘zbekiston ana shunday yurt.

Shukuh



Millatim qirg‘iz bo‘lsa-da, hayot yo‘lim, mehnat faoliyatim, quvonch va tashvishlarim shu aziz tuproq bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Qariyb yarim asrdan beri turli lavozimlarda mehnat qilar ekanman, ich-ichimdan bir haqiqatni chuqur tushunib yetdim: Vatanga muhabbatning millati, dini, tili yo‘q ekan. Vatan ulardan ko‘ra baland va yuksak tushuncha!

Shu yurtda tug‘ilib o‘sgan, O‘zbekistonni o‘z Vatanim deb bilgan inson sifatida bugun mamlakatimiz va Qirg‘iz Respublikasi o‘rtasidagi rishtalar tobora yaxshilanib borayotganidan juda mamnunman. Nazarimda, ikki davlat o‘rtasidagi bugungi munosabatlar ming yillik tarix, qardoshlik, ahil qo‘shnichilik va xalqlarimizning bir-biriga bo‘lgan azaliy mehr-oqibatining ko‘zgusidir.

Bugun deputat sifatida el ishonchiga sazovor bo‘lishim ham yurtimizdagi millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik, hamjihatlikning yaqqol ifodasi. Nazarimda, deputatlikda mansab va lavozimdan ham yuqori bo‘lgan bir jihat bor: bu sizni saylagan xalqning ishonchi, ular oldidagi mas’uliyat!

Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashiga 7-Baxmal saylov okrugidan saylangan deputat sifatida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari, saylovchilar murojaatlarini o‘rganar ekanman, ular ishonchiga munosib bo‘lishga intilaman. Shu yil bahorning avvalida “Baxmal” QFY Qorasuv va Abay qishloqlari aholisi bilan uchrashuvlarda Sangzor daryosining ushbu qishloqlar hududidan oqib o‘tuvchi qismiga ko‘prik qurish masalasi ilgari surildi. O‘rganishlarda aniqlandiki, aholi shu paytgacha omonatgina qilib qurilgan ko‘prikdan foydalanib kelgan. Bu esa qish-qirovli, yog‘insochinli kunlarda, ayniqsa, sel toshqinlari ko‘p sodir bo‘ladigan mazkur hududlarda ko‘plab noqulayliklarni keltirib chiqargan. Masalaga yechim topish yuzasidan mutasaddi tashkilotlarga deputatlik so‘rovi kiritildi. Tez fursatlarda barpo etilgan ko‘prik bugun ularning uzog‘ini yaqin, mushkulini oson qilyapti.

Toza ichimlik suvi barchamizning oddiy, shu bilan birgalikda eng muhim kundalik ehtiyojlarimizdan. Ammo afsuski, hozirgacha ayrim joylarda bu ehtiyoj to‘laligicha bartaraf etilmagan. “Sangzor” MFY hududidagi 14-maktab jamoasi bilan uchrashuv vaqtida muassasada toza ichimlik suvi yo‘qligi uzoq vaqtdan beri yechimini kutayotgani ma’lum bo‘ldi. Va tezda Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘lari hisobidan artezian quduq qazilib, masalaga yechim topishga ko‘maklashildi.

2008-yildan buyon xalqaro toifadagi amaliyotchi buxgalterman. 2020-yilda Buyuk Britaniyadagi “Alterra” uyushmasining xalqaro auditor diplomiga ega bo‘ldim. Men rahbarlik qilayotgan “Maslahat audit” firmasi mamlakatimizdagi 18 ta xalqaro toifadagi audit tashkilotlardan biri hisoblanadi. 2016, 2018-yillarda “Eng yaxshi auditor” respublika tanlovi sovrindorlari safidan o‘rin oldim. 2019-yilda tashkilotimiz dunyodagi yirik 20 talik guruhga kiradigan Fransiyaning “JPA International” xalqaro auditorlar tarmog‘i a’zoligiga qabul qilindi. Bu ham mustaqillik, shu yurt bergan eng katta imkoniyatlardan biri, deb bilaman.

2006-yildan buyon O‘zbekiston Qirg‘iz milliy madaniy markazi Jizzax viloyati bo‘limi raisi sifatida ish olib boryapman. Viloyatimizda bugungi kunda 70 dan oshiq turli millat vakillari istiqomat qiladi, 6 ta milliy madaniy markaz faoliyat yuritadi. Birgina Jizzax viloyatining o‘zida qirg‘iz millatiga mansub 40 mingga yaqin aholi yashaydi. Ayni paytda qirg‘iz tilida o‘qitiladigan 15 ta umumta’lim maktabi bor.

Viloyatdagi millatlararo totuvlik, do‘stlik, hamjihatlik ishlariga boshqosh bo‘lib, ikki xalqning tinch-totuv, ahil hayot kechirishiga hissa qo‘shish baxti nasib etganidan baxtiyorman.

Mamat GULBAYEV,
Qirg‘iz milliy madaniy markazi Jizzax viloyati bo‘limi raisi, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.

XALQARO TA’LIM STANDARTLARI – RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHNING MUHIM OMILI

Bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish, zamonaviy bilim va kasbiy ko‘nikmalarga ega, ichki va xalqaro mehnat bozorida munosib o‘rin egallay oladigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Nuqtai nazar

Prezidentimiz rahbarligida ta’lim sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar oliy ta’lim muassasalariga yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, ularning zimmasiga katta mas’uliyat ham yuklamoqda. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti jamoasi ham ushbu islohotlarning faol ishtirokchisi sifatida ta’lim sifatini yaxshilash, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va yoshlarimizga dunyo miqyosida tan olinadigan ta’lim olish imkoniyatini yaratish yo‘lida tizimli ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Integratsiyalashgan o‘quv dasturlari

Oliygohimizda 2025/2026 o‘quv yilidan boshlab Xalqaro malakalar va baholash markazi bilan hamkorlikda Buyuk Britaniyaning “IQF – Integrated Qualifications Framework” – tartibga solinadigan malakalar tizimi talablari asosidagi integratsiyalashgan ta’lim dasturi yo‘lga qo‘yildi. Uning doirasida bakalavriat bosqichida Axborot xavfsizligi, Biznes boshqaruvi va Arxitektura ta’lim yo‘nalishlari, magistratura bosqichida esa Biznesni boshqarish, ya’ni MBA mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlash boshlandi.

Ushbu dasturga ko‘ra o‘quv jarayoni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Xalqaro malakalar va baholash markazi tomonidan 2025-yil 16-iyulda tasdiqlangan o‘quv rejalari asosida tashkil etildi. Ta’limning ingliz tilida olib borilishi, mashg‘ulotlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, loyiha ishlari, amaliy topshiriqlar, keyslar va xalqaro baholash mezonlaridan foydalanilishi talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki mustaqil fikrlash, muammolarni tahlildan o‘tkazish va amaliy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantirmoqda.

O‘tgan o‘quv yilidagi dastlabki qabul doirasida mazkur dasturlarga bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bosqichida 33 nafar, MBA magistratura mutaxassisligidan 18 nafar, jami 51 talaba qamrab olindi. Ta’lim sifatini ta’minlash maqsadida o‘quv jarayoniga Buyuk Britaniyadan 3 nafar xorijiy professor-o‘qituvchi, xorijda tahsil olgan 2 nafar hamda xorijiy davlatlarda malaka oshirgan 5 nafar mahalliy mutaxassis jalb etildi. Bugungi kunda mashg‘ulotlar zamonaviy ta’lim metodlari asosida olib borilmoqda.



Xalqaro akademik mobillik

Integratsiyalashgan ta’lim tizimining yana bir muhim afzalligi xalqaro akademik mobillik imkoniyatlarining kengligidir. Dastur “1+3”, “2+2”, “3+1” va “4+0” modellari asosida tashkil etilgan bo‘lib, talaba o‘zining akademik maqsadi va imkoniyatlaridan kelib chiqib, ta’limning muayyan qismini Toshkent arxitektura-qurilish universitetida olishi, keyin esa o‘quvni xorijiy oliy ta’lim muassasasida davom ettirishi mumkin. Masalan, “1+3” modelida talaba bir yil O‘zbekistonda va uch yil xorijda, “2+2” modelida ikki yil O‘zbekistonda va ikki yil xorijda, “3+1” modelida esa uch yil universitetimizda va yakuniy bir yilni xorijiy oliy ta’lim muassasasida tahsil olishi mumkin. “4+0” modeli orqali talabalar O‘zbekistondan chiqmagan holda xalqaro standartlarga asoslangan ta’lim dasturini to‘liq tamomlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mazkur modelning tegishli talablarini bajargan talabalar hamkorlik kelishuvlari asosida nufuzli Xertfordshir universiteti (Buyuk Britaniya) diplomini qo‘lga kiritadi.

“4+0” modelining joriy etilishi xalqaro ta’lim olish istagida bo‘lgan, biroq xorijda yashash va o‘qish bilan bog‘liq yuqori xarajatlarni qoplashga sharoiti cheklangan oilalar farzandlari uchun katta imkoniyat yaratmoqda.

Integratsiyalashgan ta’lim dasturining an’anaviy qo‘shma ta’lim dasturlaridan farqli jihati shundaki, u faqat bitta hamkor xorijiy universitet bilan cheklanib qolmaydi. Universitet xalqaro miqyosda tan olingan ta’lim va malakalar tizimi bilan hamkorlik qilgani sababli talabalar o‘zining akademik maqsadlari, tanlagan mutaxassisligi, moliyaviy imkoniyatlari, ta’lim sifati va universitetlar reytingidan kelib chiqib, xorijiy oliy ta’lim muassasasini mustaqil tanlashi mumkin. Natijada ular Buyuk Britaniya, Malayziya, Avstraliya, Italiya va boshqa davlatlardagi mazkur ta’lim tizimini tan olgan nufuzli universitetlarga o‘qishini ko‘chirish, istalgan bosqichdan ta’limni davom ettirish yoki universitetimizda o‘qishni to‘liq yakunlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bugungi kunga qadar Xalqaro malakalar va baholash markazi ko‘magida Buyuk Britaniyaning nufuzli Nortumbriya, Xertfordshir va Vulverxempton universitetlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

Universitet faoliyatida yangi bosqich

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 10-iyul kuni xalqaro ta’lim standartlari asosida o‘rta maxsus, kasbiy va oliy ta’lim dasturlarini joriy etish, nufuzli xorijiy universitetlar bilan akademik hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishishi universitetimiz faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi. Taqdimotda Toshkent arxitektura-qurilish universitetida Buyuk Britaniya ta’lim standartlari asosida yo‘lga qo‘yilgan integratsiyalashgan ta’lim dasturi, uning dastlabki natijalari, talabalar va ota-onalar tomonidan bildirilayotgan qiziqish, xalqaro akademik mobillik imkoniyatlari hamda ushbu tizimni yanada kengaytirish istiqbollari haqida ma’lumot berildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan universitetimizda amalga oshirilayotgan tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanib, xalqaro ta’lim dasturlari doirasida zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yana to‘rtta yangi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha talabalar qabulini tashkil etishga ruxsat berildi. Shundan so‘ng Dizayn, Urbanistika, Qurilish muhandisligi va Qurilish huquqi yo‘nalishlariga qabul ochildi. Ularning faoliyati mamlakatimizda jadal sur’atlarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va shaharsozlik ishlari, zamonaviy infratuzilma loyihalari hamda qurilish sohasidagi huquqiy munosabatlarni malakali mutaxassislar bilan ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dizayn yo‘nalishida talabalar arxitektura muhiti, interyer va eksteryer dizayni, zamonaviy materiallar, ranglar uyg‘unligi, vizual kommunikatsiya hamda raqamli loyihalash texnologiyalarini o‘rganadi. Mazkur yo‘nalish zamonaviy fikrlaydigan, kreativ yondashuvga ega, bino va inshootlarning nafaqat funksional, balki estetik jihatdan mukammal bo‘lishini ta’minlay oladigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Urbanistika yo‘nalishi esa shahar va hududlarni kompleks rivojlantirish, transport va muhandislik infratuzilmasini rejalashtirish, yashil va jamoat hududlarini tashkil qilish, ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda “aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. Aholi sonining o‘sishi va shaharlashuv jarayonlarining jadallashuvi kelajak shaharlarini ilmiy asosda rejalashtira oladigan urbanistlarga ehtiyojni tobora oshirmoqda.

Qurilish muhandisligi yo‘nalishida bino va inshootlarni loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish, ularning mustahkamligi va seysmik xavfsizligini ta’minlash, zamonaviy qurilish materiallari, energiya samaradorligi, raqamli modellashtirish va BIM texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar beriladi. Mazkur mutaxassislar yirik qurilish va infratuzilma loyihalarini xalqaro standartlarga muvofiq, sifatli va xavfsiz amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Qurilish huquqi esa mamlakatimiz ta’lim tizimi uchun dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Qurilish jarayonlarida buyurtmachi, investor, pudratchi, loyihachi, nazorat organlari va boshqa ishtirokchilar o‘rtasida murakkab huquqiy munosabatlar yuzaga keladi. Mazkur yo‘nalishda milliy va xalqaro qurilish qonunchiligi, investitsiya shartnomalari, tender jarayonlari, mulk va yer munosabatlari, qurilish nizolarini hal etish va loyihalarni huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadi. Bunday kadrlar qurilish kompaniyalari, loyiha tashkilotlari, davlat idoralari, yuridik firmalar va xalqaro tashkilotlarda samarali faoliyat yuritishi mumkin.

Global mehnat bozoriga yo‘l

Integratsiyalashgan ta’lim dasturi talablarini muvaffaqiyatli bajargan bitiruvchilarga Toshkent arxitektura-qurilish universitetining diplomi bilan bir qatorda Buyuk Britaniya ta’lim standartlari asosida xalqaro miqyosda tan olinadigan tegishli diplom va malaka hujjatlarini olish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, talabalar har bir bosqich yakunida o‘zlashtirilgan malaka darajasini tasdiqlovchi xalqaro sertifikatlarga ega bo‘ladi. Bu esa bitiruvchilarimizga O‘zbekistonda va xorijda ta’limni davom ettirish, xalqaro kompaniyalarda faoliyat olib borish hamda global mehnat bozorida munosib o‘rin egallash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Dasturning dastlabki natijalari hamda davlatimiz rahbarining yuksak e’tibori va qo‘llab-quvvatlashidan kelib chiqib, yangi qabul mavsumida mazkur integratsiyalashgan ta’lim dasturlariga jami 1 000 nafar talabani qabul qilish rejalashtirilgan. Mazkur jarayonda nomzodlarning bilim darajasi, ingliz tilini bilishi, mantiqiy va tahliliy fikrlash qobiliyati, tanlagan kasbiga qiziqishi hamda motivatsiyasiga alohida e’tibor qaratiladi.

Talabalar uchun zamonaviy auditoriyalar, elektron ta’lim platformalari, axborot-resurs markazlari, loyiha va kompyuter laboratoriyalari, amaliy mashg‘ulotlar bazalari hamda xorijiy axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi. Professor-o‘qituvchilarning malakasini oshirish, ularni xorijiy universitetlarda stajirovkalarga yuborish, dars jarayoniga soha mutaxassislarini jalb etish va talabalarni mahalliy hamda xalqaro kompaniyalardagi amaliyot dasturlari bilan qamrab olishga alohida e’tibor qaratiladi.

Biz Buyuk Britaniya ta’lim standartlari asosidagi integratsiyalashgan dasturning joriy etilishini shunchaki yangi ta’lim shakli sifatida emas, balki mamlakatimizning intellektual salohiyati va kelajagiga yo‘naltirilgan strategik sarmoya sifatida baholaymiz. Bugungi kunda arxitektura, qurilish muhandisligi, urbanistika, dizayn, qurilish huquqi, axborot xavfsizligi va biznes boshqaruvi sohalarida xalqaro darajadagi malakali kadrlarga talab ortib bormoqda. Ayrim yirik loyihalarni amalga oshirishda xorijiy mutaxassislarni jalb qilish zarurati ham mavjud. Xalqaro standartlar asosida bilim olgan mahalliy mutaxassislarni tayyorlash orqali kelajakda xorijdan malakali kadrlarni jalb etish ehtiyojini bosqichma-bosqich kamaytirish mumkin.

Eng muhimi, mazkur ta’lim tizimi yoshlarimizga Vatanimizda turib xalqaro darajadagi bilim va malaka olish, zamonaviy kasblarni egallash, dunyoning nufuzli universitetlari bilan akademik aloqalar o‘rnatish va kelajakda yirik bunyodkorlik loyihalarida faol ishtirok etish imkonini beradi. Universitetimiz bitiruvchilari Yangi O‘zbekistonning zamonaviy me’moriy qiyofasini yaratadigan, shaharlarimizni barqaror rivojlantiradigan, qurilish jarayonlarining sifati va xavfsizligini ta’minlaydigan, sohadagi huquqiy va boshqaruv masalalarini professional hal qila oladigan yetuk mutaxassislar bo‘lib yetishishiga ishonamiz.

Bahrom TO‘LAGANOV,
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti rektori.

Yurtimizda endilikda tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlikni so‘ndirishning yangi mexanizmi joriy etiladi.

Mustaqillikning 35 yilligiga

MUSTAQILLIK YO‘LIDAN UCHINCHI RENESSANS SARI

TARIX, MEROS VA MA’RIFATNI BIRLASHTIRGAN MARKAZ

O‘ttiz besh yil – tarix uchun bir lahza. Ammo xalq taqdirida ba’zan ana shu qisqa muddat asrlarga tatigulik mazmun kasb etadi. O‘zbekiston davlat mustaqilligining 35 yillik shodiyonalarini kutib olar ekanmiz,istiqlol bizga bergan eng buyuk imkoniyatlardan biri – o‘z tariximizga o‘zimiz egalik qilish,milliy xotiramizni tiklash,ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni xolis o‘rganish va uni butun dunyoga munosib tarzda namoyon etish huquqi ekanini yanada teran his qilamiz.

Ayniqsa, keyingi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tarixiy xotirani tiklash, buyuk ajdodlar merosini o‘rganish, asrab-avaylash va xalqaro miqyosda targ‘ib etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu siyosatning eng yirik va yorqin amaliy ifodalaridan biri O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazidir.

Davlatimiz rahbari markazni “uch ming yildan ziyod shonli tariximizni Yangi O‘zbekiston bilan bog‘laydigan, inson va xalq qadrini ulug‘laydigan aql-tafakkur markazi” sifatida tasavvur qildi. Shu ma’noda, bu dargohni faqat muzey, me’moriy majmua yoki sayyohlik obyekti sifatida baholash kamlik qiladi. U – mustaqil O‘zbekistonning o‘z o‘tmishiga bo‘lgan munosabati, milliy o‘zlikni anglash jarayoni, ma’rifatga tayangan kelajak konsepsiyasining o‘ziga xos ramzi.

Shaxsiy tashabbusdan tarixiy majmuagacha

Markaz tarixi ham Yangi O‘zbekistonda boshlangan ulkan ma’naviy yangilanishlar tarixi bilan chambarchas bog‘liq. 2017-yil 21-aprel kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrining Olmazor tumaniga tashrifi chog‘ida Hazrati Imom majmuasida yangi ma’rifiy markaz tashkil etish g‘oyasini ilgari surdi. Oradan ikki oy o‘tib, 23-iyun kuni davlatimiz rahbarining maxsus qarori qabul qilindi. Markaz oldiga yurtimizning jahon sivilizatsiyasi, xususan, islom ilm-fani va madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasini ilmiy asosda o‘rganish, chet ellarda saqlanayotgan noyob qo‘lyozma va manbalarni izlab topish, muzey va kutubxona fondlarini boyitish, buyuk allomalar merosini keng targ‘ib qilish kabi strategik vazifalar qo‘yildi.

O‘sha yilning sentyabr oyida Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O‘zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazi barpo etilayotganini xalqaro hamjamiyatga ma’lum qildi. Bu orqali mamlakatimiz dunyo minbaridan islom dinini jaholat va zo‘ravonlik bilan bog‘lashga urinishlarga qarshi ilm-ma’rifat, gumanizm va bag‘rikenglik g‘oyalarini ilgari surdi.

2018-yil 15-iyun – Ramazon hayiti kuni davlatimiz rahbari markaz poydevoriga ramziy tamal toshini qo‘ydi. O‘sha kuni aytilgan bir fikr loyihaning butun falsafasini ifoda etdi: bu maskan buyuk ajdodlar merosini xalqimiz va jahon hamjamiyatiga yetkazish, yoshlarni tarbiyalash, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish, tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlashga xizmat qilishi kerak.

Keyingi yillarda loyiha bir necha bor takomillashtirildi. Davlatimiz rahbari qurilish jarayonini muntazam kuzatib bordi, ekspozitsiyalar mazmunidan tortib, me’moriy yechimlar, axborot texnologiyalari, har bir zalda qanday g‘oya aks etishigacha e’tibor qaratdi.

2025-yil yanvar, avgust va oktyabr oylaridagi tashriflar chog‘ida ham markazni oddiy tarixiy eksponatlar to‘plami emas, balki o‘tmish, bugun va kelajakni bog‘laydigan intellektual makonga aylantirish vazifasi qo‘yildi. Prezidentimiz 2025-yil 29-avgustda markazda bo‘lib, “Sakkiz yil davomida bu yerda katta mehnat qilindi. Shunday salobatli va chuqur mazmunli markaz qurdik”, deya ta’kidlagan edi.

Nihoyat, 2026-yil 17-mart kuni xalqimiz hayotida tarixiy voqea yuz berdi – O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi rasman ochildi.



Ochilish marosimida Prezident Shavkat Mirziyoyev markazni mamlakatimizning uch ming yillik shonli tarixi va boy madaniyati, Yangi O‘zbekiston imkoniyatlarining yorqin ko‘zgusi deb atadi. “Tarix tilga kirgan, tarixdan saboq olingan joyda, albatta, bilim va ma’rifat, taraqqiyot va adolat bo‘ladi”, degan so‘zlar esa bu ulkan maskanning ma’naviy dasturiga aylandi.

Milliy xotiraning zamonaviy me’moriy timsoli

Salkam o‘n gektar hududni egallagan majmuaning umumiy foydalanish maydoni 50 ming kvadrat metrga yaqin. Uning to‘rt tomonida 34 metrli mahobatli peshtoqlar, markazida esa balandligi 65 metr bo‘lgan ulkan gumbaz qad rostlagan. Ammo uning haqiqiy salobati faqat me’moriy ko‘lamda emas, mazmunda namoyon bo‘ladi.

Markazda “Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar”, “Birinchi Renessans”, “Ikkinchi Renessans”, “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans poydevori” kabi yirik ekspozitsiyalar bir butun tarixiy mantiq asosida joylashtirilgan. Ular orqali yurtimiz tarixi faqat muayyan bir davr yoki bir yo‘nalish bilan cheklanmay, ming yillar davomida shakllangan yaxlit sivilizatsion jarayon sifatida ko‘rsatiladi.

Markazning qalbi – Qur’oni karim zali. Bu yerda dunyodagi eng qadimiy Qur’on nusxalaridan biri – muqaddas Usmon Mus’hafi munosib maqomda namoyish etilmoqda. Shuningdek, somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar, temuriylar va boshqa tarixiy davrlarga oid nodir qo‘lyozmalar, Qur’on nusxalari va tarjimalar jamlangan.

Al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari o‘nlab buyuk ajdodlarimiz hayoti va ilmiy kashfiyotlari esa zamonaviy multimedia texnologiyalari, interfaol qurilmalar va raqamli yechimlar orqali taqdim etilmoqda.

Ayrim buyuk siymolarning raqamli avatarlari tashrif buyuruvchi bilan go‘yo “suhbatlashadi”, asarlari, g‘oyalari va kashfiyotlari haqida hikoya so‘laydi. Bolalar muzeyi esa yosh avlodga tarixni quruq sanalar to‘plami sifatida emas, his qilish va kashf etish mumkin bo‘lgan tirik olam sifatida anglatishga xizmat qiladi.

2026-yilning o‘zida markaz “Dunyoning eng yirik islom sivilizatsiyasi muzeyi” sifatida “Guinness World Records” e’tirofiga sazovor bo‘ldi. Shuningdek, u “Prix Versailles” talqini bo‘yicha 2026-yilning dunyodagi eng go‘zal muzeylari global ro‘yxatiga kiritildi. Bu e’tiroflar Yangi O‘zbekistonda yaratilgan madaniy-ma’rifiy loyiha jahon miqyosida ham katta qiziqish uyg‘otayotganining tasdig‘idir.

Tarqoq meros Vatanga qaytmoqda

Mustaqillik xalqqa o‘z tarixining parokanda sahifalarini birlashtirish, turli sabablarga ko‘ra xorijga chiqib ketgan milliy boyliklarni izlab topish va Vatanga qaytarish imkonini berdi.

Prezidentimiz markaz ochilishida bu boradagi orzusini juda ta’sirchan ifoda etdi: dunyoning qayerida bo‘lmasin, tariximizga tegishli bir varaq qo‘lyozma yoki bitta eksponat bo‘lsa ham topib, yurtimizga olib kelish vazifasi qo‘yilganini aytdi.

Bu g‘oya bugun ulkan xalqaro harakatga aylanmoqda. 2025-yilning o‘zida markaz ekspozitsiyasiga 1,5 mingdan ziyod eksponatlar, jumladan, 800 ga yaqin qadimiy qo‘lyozma, arxeologik topilma va tarixiy xaritalar joylashtirildi. Xorijiy auksion uylari, xususiy kolleksionerlar va art-dilerlar bilan o‘rnatilgan hamkorlik natijasida dastlab 743 ta eksponatning asl nusxasi yurtimizga keltirildi. 2026-yil 1-iyun holatiga ko‘ra esa Vatanga qaytarilgan artefaktlar soni mingdan oshdi.

Ayniqsa, Buyuk Britaniya bilan amalga oshirilgan hamkorlik tarixiy adolatni tiklashning yangi namunasini ko‘rsatdi. Markaz, “WOSCU”, YEXHT, “Art Loss Register”, London politsiyasi va Britaniyaning tegishli tashkilotlari hamkorligida O‘zbekiston hududi bilan bog‘liq o‘nta nodir artefakt Vatanga qaytarildi. Ular orasida Kushonlar davri va qadimgi Termiz buddaviy san’atiga oid II – V asrlarga mansub haykal boshlari, sug‘d madaniyatiga doir devoriy rasm parchalari hamda temuriylar davriga oid nodir yodgorliklar bor. Shu bilan birga, xorijiy to‘plamlardan Ka’ba tarixi bilan bog‘liq noyob osoriatiqalar, tarixiy kisva parchalari, XIX asr oxiriga oid “Burqa”, Madinai Munavvaradagi Ravza yopinchig‘i, “Daloil al-xayrot” kabi xattotlik durdonalari ham markaz kolleksiyalaridan munosib o‘rin olmoqda.

> ***Markaz qisqa vaqt ichida O‘zbekistonning xalqaro mehmonlar uchun eng muhim tashrif manzillaridan biriga aylandi. Rasman ochilgan 17-martdan 1-iyunga qadar uni yarim millionga yaqin mahalliy va xorijiy mehmonlar tomosha qildi. Kunlik tashriflar o‘rtacha 6 ming nafarni tashkil etdi. Shu qisqa davrning o‘zida 150 dan ortiq xorijiy delegatsiya va 2 mingdan ziyod xorijiy mehmonlar markazda bo‘ldi.***

Eng muhimi, endi bu ishlar alohida ekspeditsiya yoki bir martalik tashabbus bilan cheklanib qolmaydi. Prezidentimiz tomonidan jahon auksionlari, muzeylar, xususiy kolleksiyalar va xalqaro san’at bozorlarida O‘zbekistonga mansub madaniy boyliklarni doimiy izlash, aniqlash, ekspertizadan o‘tkazish va Vatanga qaytarishning tizimli mexanizmini yaratish vazifasi belgilandi. Xitoy, AQSH, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlarda saqlanayotgan O‘zbekiston madaniy merosiga oid kolleksiyalarni o‘rganish ishlari izchil davom ettiriladi.

Markaz qisqa vaqt ichida O‘zbekistonning xalqaro mehmonlar uchun eng muhim tashrif manzillaridan biriga aylandi. Rasman ochilgan 17-martdan 1-iyunga qadar uni yarim millionga yaqin mahalliy va xorijiy mehmonlar tomosha qildi. Kunlik tashriflar o‘rtacha 6 ming nafarni tashkil etdi. Shu qisqa davrning o‘zida 150 dan ortiq xorijiy delegatsiya va 2 mingdan ziyod xorijiy mehmonlar markazda bo‘ldi. Ular orasida prezidentlar, bosh vazirlar, parlament rahbarlari, xalqaro tashkilotlar vakillari, olimlar, diniy arboblar va madaniyat namoyandalari bor.

Shu ma’noda, markaz faqat O‘zbekistonning ichki madaniy loyihasi emas, balki mamlakatimizning yangi xalqaro qiyofasini shakllantirayotgan muhim gumanitar diplomatiya maydoniga aylandi.

Ilm-fan va ma’rifatning yangi maydoni

Markazni barpo etish jarayonining muhim xususiyati shundaki, qurilish ishlari ilmiy izlanishlar bilan bir vaqtda olib borildi. Natijada uning atrofida yangi ilmiy maktab va keng ekspertlar tarmog‘i shakllandi.

2026-yil iyuniga qadar ilmiy va innovatsion yo‘nalishda 810 ta loyiha amalga oshirildi. Ularda 2 mingga yaqin mahalliy va xorijiy olimlar qatnashdi. Bu yerda o‘tkazilgan konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlari, mahorat darslari va kitob taqdimotlariga 5 mingdan ziyod ishtirokchilar jalb qilindi.

2026-yil 7 – 11-iyul kunlari esa Toshkent, Samarqand va Termiz shaharlarida Islom sivilizatsiyasi I xalqaro forumi bo‘lib o‘tdi.

Bugun O‘zbekiston madaniy merosini dunyoga olib chiqish siyosati yangi mazmun kasb etmoqda. Agar ilgari xorijliklar bizning tariximiz haqida, asosan, boshqa mamlakatlar muzeylari yoki tadqiqotchilari orqali ma’lumot olgan bo‘lsa, endi O‘zbekiston o‘z tarixini o‘z ilmiy manbalari va milliy nuqtayi nazari asosida jahonga taqdim etmoqda.

2026-yil 13-iyun kuni Qohirada “O‘zbekiston – Misr: sivilizatsiyalar va islomiy meros muloqoti” mavzuida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining yirik xalqaro taqdimoti o‘tkazildi. Iyul oyida markaz Yaponiyada keng taqdim etildi. Oradan ko‘p o‘tmay, Pekinda ham shunday taqdimot tashkil qilinib, unda SHHT Kotibiyati, diplomatik korpus, tahlil markazlari va akademik doiralar vakillari qatnashdi. Bu tadbirlar keng ko‘lamli madaniy diplomatiya strategiyasining tarkibiy qismidir.

Prezidentimiz 10-iyun kuni markazning kelgusi rejalarini ko‘rib chiqar ekan, uning taqdimotlarini 55 davlatda tashkil etish vazifasini qo‘ydi. BMTning Nyu-York va Jenevadagi tuzilmalari, YUNESKOning Parijdagi qarorgohida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy ilmiy merosiga bag‘ishlangan maxsus xalqaro taqdimotlarni o‘tkazish belgilandi.

Ayni paytda Parijda YUNESKO qarorgohidagi taqdimotga tayyorgarlik doirasida uchrashuvlar o‘tkazildi. Jenevadagi BMT qarorgohida ham markaz va buyuk allomalarimiz merosini xalqaro auditoriyaga namoyish etish masalalari muhokamadan o‘tkazilmoqda. Shunday qilib, bir vaqtlar dunyo muzeylari va kutubxonalarida tarqoq holda o‘rganilgan O‘zbekiston sivilizatsion merosi endi Toshkentdan turib butun jahon ilmiy va madaniy makoniga yangi kuch bilan kirib bormoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Uchinchi Renessans g‘oyasi tarixni takrorlash da’vosi emas. U buyuk merosdan kuch olib, yangi avlodni ilm-fan, texnologiya, ijod va tafakkurga chorlash g‘oyasidir. O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi esa shu g‘oyaning ko‘z bilan ko‘rish, qalb bilan his qilish mumkin bo‘lgan timsoliga aylandi.

Markazga tashrif buyurayotgan har bir inson – xoh xorijiy mehmon, xoh yurtdoshimiz bo‘lsin – bu maskandan katta ma’naviy ozuqa, unutilmas taassurot va yuksak iftixor tuyg‘usi bilan qaytayotganini alohida ta’kidlamoqda. Zotan, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining eng katta vazifasi ham ana shunda – buyuk tariximizni muzey sukunatida qoldirmasdan, uni Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot, ilm-ma’rifat va bunyodkorlik g‘oyalari bilan bog‘lab, kelajak avlodlarga tirik meros sifatida yetkazishdir.

Firdavs ABDUXOLIQOV,
O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori.



Shaxmat: JAHON REYTINGIDA 6-O‘RIN

Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) sentyabr oyi uchun turli mamlakatlar jamoalarining yangilangan reytingini e’lon qildi. Unga ko‘ra O‘zbekiston erkaklar terma jamoasi jahonning eng kuchli federatsiyalari orasida yana ikki pog‘ona yuqorilab,6-o‘rindan joy oldi.



Ayni paytda O‘zbekistonning “TOP – 10” shaxmatchisining o‘rtacha reytingi 2 628 ballni tashkil qilmoqda. Yurtimiz “aql ustalari” xalqaro musobaqalarda muntazam ravishda yuqori natijalar qayd etib, mamlakatimizning jahon reytingidagi mavqeini mustahkamlab kelayotir.

Eslatib o‘tamiz, FIDE federatsiyalar reytingi shaxmatchilarning reyting ko‘rsatkichlari asosida shakllantiriladi.

Futzal: “SQB” – O‘ZBEKISTON SUPERKUBOGI G‘OLIBI

Poytaxtimizdagi “Humo arena” majmuasida futzal bo‘yicha O‘zbekiston superkubogi uchun o‘yin o‘tkazildi. Unda “BMB” va “SQB” jamoalari bahs olib bordi. Asosiy vaqt 3:3 hisobi bilan yakunlangan uchrashuvda “SQB” penaltilar seriyasida g‘alaba qozonib,2026-yilgi superkubok g‘olibi bo‘ldi.



Qayd etish joizki, jahon futbolining bir qator yulduzlari faxriy mehmonlar sifatida Toshkentga taklif etilib, ular uchrashuvni bevosita sport majmuasidan kuzatib bordi. Xususan, Uesli Snayder, Rikardu Kuarejma, Marko Materassi, Julio Sezar, Michel Salgado kabi futbolchilar shular jumlasidandir.

Taqdirlash marosimida Milliy olimpiya qo‘mitasi, O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi hamda mamlakat futzal federatsiyasi rahbariyati ham qatnashib, g‘olib va sovrindorlarni qutladi.

Sunnatilla ISLOMOV
(“Xalq so‘zi”).

REKLAMA

“Elektron Realtor” MCHJ

Erieltor

to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar o‘tkazish yo‘li bilan tashkillashtiriladigan ko‘chmas mulklar va ularga bo‘lgan huquqlar bo‘yicha o‘tkaziladigan savdoga taklif etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 15 apreldagi PQ – 142-sonli qaroriga asosan “O‘zsanoatqurilishbank” ATB balansida bo‘lgan:

Xorazm viloyati, Bog‘ot tumani, “Oltinqum” MFY, Buyuk maqsad 1-tor ko‘chasi,17-uyda joylashgan uy-ro‘zg‘or buyumlarini ta’mirlash ustaxonasi binosi sotiladi.

Sotish sharti va narxi bilan “www.e-rieltor.uz” sayti orqali tanishishingiz mumkin.

Savdoga qo‘yilgan mulklarni bevosita joyiga chiqib ko‘rish imkoniyati bor.

*Savdoda ishtirok etish uchun talabgorlar **“e-rieltor.uz”** platformasi orqali ariza berishlari kerak.*

Call-markaz: +99855-517-22-20.
Rasmiy saytimiz: www.e-rieltor.uz

«Aloqabank» ATB aksiyadorlari diqqatiga!

AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG‘ILISHINI CHAQIRISH TO‘G‘RISIDA XABARNOMA (MASOFADAN)

Sizlarni **2026-yil 28-sentabr kuni soat 10:00 da** “Evote.uz” elektron ovoz berish xizmati orqali masofadan turib o‘tkaziladigan “Aloqabank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishiga taklif etamiz.

Umumiy yig‘ilishda masofadan turib ishtirok etish va kun tartibiga kiritilgan masalalarga ovoz berish “Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi” AJning “http://evote.uz” elektron ovoz berish xizmati orqali ta’minlanadi. Aksiyadorlar platformadan foydalanish uchun elektron raqamli imzo kaliti (ERI) bilan identifikatsiyadan o‘tishlari lozim (platformadan foydalanish bo‘yicha Markaziy depozitariy telefon raqami: +99871-211-09-09).

Kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilgan:

1. “Aloqabank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash;
2. Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;
3. Ustavga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;
4. “Islomiy moliya kengashi to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash;
5. “Islomiy moliya standartlariga muvofiqlik siyosati”ni tasdiqlash;
6. “Aloqabank” ATBning Islomiy moliya kengashi a’zolarini saylash;
7. “Aloqabank” ATBning Islomiy moliya kengashi a’zolarining ish haqi to‘lovlari miqdorini tasdiqlash.

Bank Kuzatuv kengashi yig‘ilishining 2026-yil 3-sentabrdagi qaroriga asosan: aksiyadorlarni navbatdan tashqari umumiy yig‘ilish o‘tkazilishi haqida xabardor qilish uchun reyestrni shakllantirish sanasi: **2026-yil 3-sentabr.** Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar reyestri tuziladigan sana: **2026-yil 22-sentabr.**

Yig‘ilish qatnashchilarini ro‘yxatga olish internet tizimi orqali elektron ovoz berish xizmatidan (http://evote.uz) foydalangan holda **2026-yil 28-sentabr soat 09:00 dan 10:00 gacha** amalga oshiriladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishiga oid hujjatlar hamda kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tayyorlangan ma’lumotlar bilan “http://evote.uz” elektron sahifasi orqali tanishishingiz yoki “info@aloqabank.uz” elektron manzili orqali so‘rov yuborishingiz mumkin. Ma’lumot uchun telefon: +998 71-232-83-67.

6-sentyabr kuni poytaxtimizda Toshkent xalqaro yarimmarafoni – ommaviy yugurish musobaqasi o‘tkaziladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan.Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-942. 19 279 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan.Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni – 01.20 Topshirildi – 01.25 1 2 3 4 5 6